

O'ZBEKISTONDA ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHDA HALQARO HAMKORLIKNING YO'LGA QO'YILISHI

Quryazova Laylo Rahmonovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,

Tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-5344-5394>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish jarayonida xalqaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng mamlakat tomonidan qabul qilingan xalqaro konvensiyalar, ikki va ko'p tomonlama bitimlar, shuningdek, BMT, YeXHT, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan olib borilgan hamkorlikning samaralari yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekistonning xalqaro maydondagi sa'y-harakatlari nafaqat milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki inson huquqlarini himoya qilish, odam savdosining oldini olish va jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish borasida ham muhim o'rin tutgani ta'kidlanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida milliy siyosatni yanada samarali qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: odam savdosi, xalqaro hamkorlik, inson huquqlari, BMT, YeXHT, Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), O'zbekiston Respublikasi, milliy qonunchilik, profilaktika, jabrlanuvchilarni himoya qilish.

Mustaqillikning dastlabki yillardan respublikada qonun ustuvorligini ta'minlash, odam savdosiga qarshi kurash borasidagi faoliyat samara-dorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va tergov qilish soha-sida samaradorlikni oshirish, odam savdosiga qarshi kurash faoliyatini tar-tibga soluvchi milliy va xalqaro normalari va ularni amalga oshirish bilan bog'liq huquqni qo'llash amaliyotini chuqur va tanqidiy o'rganish, odam savdo-siga qarshi kurash dolzarb masalalardan

biri bo'lib qoldi. Masalan, dunyo miqyosidagi aholi migratsiyasi ommaviylashib, aholining barcha qatlamlarini, yosh guruhlarini, ayollar va erkaklarni, turli soha egalarini va ijtimoiy guruh vakillarini asta-sekin qamrab, ayniqsa sovet ittifoqi tarqalib ketgan, sotsialistik tizimdagi davlatlardan ko'plab odamlar ko'proq daromad topish, yaxshi hayotni izlash ilinjida mamlakatdan chiqib keta boshladi, ularning ko'pchiligini yoshlar va ayollar tashkil etdi. Binobarin, 1991-1995 yillarda ish o'rinlarining qisqartirilishi natijasida respublikada ishsiz qolganlarni 65 foizni xotin-qizlar tashkil etgan edi.

O'zbekistonda bu kabi masalalarni hal etish va salbiy holatlarni oldini olish maqsadida dastlabki yillardan inson huquqlarini himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha milliy institutlar - Konstitutsiyaviy sud, Amal-dagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va nodavlat notijorat tashkilotlari kabilar tuzildi. Ichki ishlar vazirliklari, Bosh prokuratura tizimida Inson huquqlari himoyasi bo'yicha boshqarmalar, uning hududiy bo'linmalari faoliyat olib bordi. In-son, bolalar huquqlarini himoya qilish avvalo ayollar haquqlarini kamsi-tish, shuningdek, qiynoqlarga qarshi kurash dasturlari amalga oshirildi. Ularni bajarilishini monitoring qiluvchi Idoralararo ishchi gurux tuzil-di. Kuchayib kelayotgan migratsiya jarayonlarini, ishsizlikni oldini olish, aholi bandligini ta'minlash maqsadida 1992 yil fevralda O'zbekistonda holi manfaatlarini himoya qilish eng dastlabki asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1998 yilda yangidan taxrir qilingan qonunning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega" – ekanligi qayd etildi.

Lekin kuchayib borayotgan odam savdosini oldini olish borasida tadbirlar muntazam nazoratda bo'lish talabini kuchaytirdi. Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston fuqarolari dastlabki yillardan ham fohishalik uchun BAA, Tailand, Turkiya, Hindiston, Isroil, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Kosta-Rikaga olib chiqib ketilgan. Majburiy mehnat yoki xizmat ko'rsatish uchun asosan Qozog'iston va Rossiyaga olib chiqib ketilgan. Bu kabi holatlar davlat siyosatini yanada

chuqurlashtirish vazifasini dolzarbligini oshirdi. Tadqiqotchi F.Bozorovning yozishicha, shahvoniy yoki boshqa g'arazli maqsadlarda yollangan qizlar va ayollarning asosiy qismi "jonli tovar" sifatida ekspluatatsiya qilish uchun asosan Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Malayziya, Gresiya va Germaniya davlat-lariga yuborilgan. Fuqarolarning xorijiy davlatlarga tranzit davlatlar – Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Armaniston va Ozarbayjon respublikalari olib chiqib ketilgan. Fohishabozlikka yollanganlar kam ta'minlangan oilalarga mansub, turmushi buzilgan, yengil tabiatli yosh juvonlar ichidan tanlanadi. Keyinchalik ularning roziligi olinib, chet elga chiqish "vizasi" rasmiylashtiriladi va birinchi bosqich ishtirokchilari yollanganlarni bevosita chet elga olib boradigan shaxslarga "sotadilar".

Shuningdek, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar ayollarni yo'l harajatini o'z zimmalariga olib, belgilangan davlatlarga bevosita olib bordilar. U yerda hujjatlarini olib qo'yib, "ishlab berish" narhini qo'yib, fohishalik bilan shug'ullanishga majbur qildilar. Yoki bevosita o'sha davlatlarda qo'shmachilik bilan shug'ullangan fuqarolarga muayyan narxda sotdilar. Kelishilgan pulni "ishlab bergandan so'ng" jabrlanuvchilarni ko'p hollarda mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga "topshirilib", keyin ular O'zbekistonga deportatsiya qilindi. Bundan tashqari ko'p hollarda odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'zlarining jinoyat faoliyatlarini yashirish maqsadida bu jabrlanuvchilarni boshqa jinoiy guruhlariga tovar sifatida sotib yubordilar. Jinsiy ekspluatatsiya jarayonida jabrlanuvchilar ko'chada, fohishaxonalarda, tungi klublarda, tashrifchilar-ning ko'nglini oladigan ayollar mavjud barlarda, saunalarda va uqalash salonlarida, shuningdek, shaxsiy manzillarda o'z xizmatlarini taqdim qildilar. Ulardan soatlab ishlashi va mijozlarning xohishlariga ko'ra barcha jinsiy xizmatlarni ko'rsatishlari talab etildi.

Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston hukumati odam savdosini hamkorlik asosida nazorat ostida bo'lib turishi maqsadida inson huquqlari, jumladan ayollar huquqlari bo'yicha 60 ga yaqin xalqaro hujjatlarga qo'shildi. BMT tomonidan mazkur sohada qabul qilingan asosiy xalqaro

shartnomalar ishtirokchisiga aylandi. BMT tomonidan moliyalashtirilgan Mira Med, Winroc International, Global Survival Net work singari xalqaro tashkilotlar umumjahon miqyosidagi mazkur muammoga qarshi kurashishga, uning oldini olishga harakat qildi. Ma'lumotlarga ko'ra juda ko'plab mamlakatlarda trafikka daxldor qonunchilik asoslari deyarli shakllantirilmagan. Ayrim mamlakatlarda esa, bunday qonun umuman yo'q. Hattoki, rivojlangan davlatlarda ham odam savdosi bilan bog'liq muammolar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur xalqaro tashkilotlar odam savdosining oldini olish uchun aholi, ayniqsa, moliyaviy jihatdan ota-onaga qaram yoshlar o'rtasida targ'ibot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlik ham davom etdi. Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni 1997 yil Amsterdam va Osloda bo'lib o'tgan konferensiyalar qarorlari negizida tug'ilgan bo'lib, 12 iyun – Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni dunyoning boshqa mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham har yili nishonlanadigan bo'ldi. 2002 yili Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan 12 iyun – Bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni, deb rasman e'lon qilindi. Ushbu tadbirlar bolalar mehnatini bartaraf etish uchun global sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarurligiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Bu harkatlar doira-sida O'zbekistonning XTM bilan halqaro aloqalar avvalo bolalar majburiy mehnatini uch toifasini, birinchidan xalqaro miqyosda qullik, bolalar savdosi, qullik mehnati va majburiy mehnatning boshqa shakllari, bolalarni qurolli to'qnashuvlarda, fohishabozlik va pornografiya maqsadlarida, shuningdek, boshqa noqonuniy faoliyatda ishlatish uchun majburiy ishga olish. Ikkinchidan, eng kam yoshga to'lmagan bola (milliy qonunchilikka va qabul qilingan xalqaro normalar asosida) tomonidan bajariladigan mehnat shu tariqa bolaning ta'lim olishiga va uning har tomonlama rivojlanishiga to'sqinlik qilish. Uchinchidan, bolaning jismoniy, aqliy yoki axloqiy faro-vonligini va rivojlanishini xavf ostiga qo'yadigan ish yoki uning xarakteri tufayli yoki u amalga oshiriladigan sharoitlar tufayli “xavfli va zararli ish”, deb hisoblanganlari bo'ldi. XMT bilan faol hamkorlik isboti va natijasi esa tashkilotning “Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham

berish va taqiqlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 182-konvensiyasi ratifikatsiya qilinishi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўз МА М- 37, рўйхат - 1, йиғма жилд -3487, 11-варақ.
2. Базаров Ф. Одам савдосига қарши курашининг миграция билан боғлиқ айрим масалалари // Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академиясининг Ахборотномаси. Чораклик илмий-амалий ҳуқуқий нашр.2016.-№2,-37 б.
3. Бўриева М.Р., З.Н.Тожиева, Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари (Ўқув қўлланма). –Тошкент: Тафаккур, 2011. – Б. 45.
4. Жўраев Э. Инсон ҳуқуқлари – давлат ҳимоясида // Ҳуқуқ ва бурч. -№ 8-9, 2008, 19-б.
5. Қодиров Р.Х. Одам савдоси – умумжаҳон миқёсдаги муаммо // Ҳуқуқ ва бурч. - № 10, 2008, 3 - б.
6. Трыканова С. Актуальные вопросы международно – правового регулирования и реализации правоохранительной функции органами государственной власти в рамках борьбы с нелегальной миграцией и торговли людьми в Республике Беларусь // Миграционное право. 2015. - №4, - с. 30-32.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., № 5-6-сон, 97 модда; 1999 й, № 1, 20-модда; № 5, 124- модда; № 9, 229- модда; 2000 й., № 5-6, 153-модда; 2001 й., № 5, 89-модда.
8. Умаров З. Одам савдоси жиноятларига қарши курашда халқаро ҳамкорликнинг муҳим жиҳатлари // Одам савдоси жиноятининг содир этилиши сабаблари ва имкон берган шарт-шароитлар. Мазкур жиноятнинг олдини олишда ва қрши курашишда ички ишлар органларининг фаолияти. Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ИИБ Малка ошириш институти, 2022. -60 б.
9. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг асосий конвенциялари ва тавсиялари. – Тошкент. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2008. – 48 б.